

**ABDULLA ORIPOV IJODINING O'ZBEK ADABIYOTI  
RIVOJIDAGI O'RNI**

**Xolliyeva Madina Bahodir qizi**

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti 1 bosqich magistr talabasi  
O'zbek tili adabiyoti yo'nalishi*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada Abdulla Oripovning o'zbek adabiyotidagi o'rni va uning ijodining rivojiga qo'shgan hissasi tahlil qilinadi. Abdulla Oripov — o'zbek she'riyatining yorqin namoyandalaridan biri bo'lib, u an'anaviy o'zbek madaniyatini zamonaviylik bilan birlashtirib, yangi badiiy ifodalar yaratgan. Maqola Oripovning she'rlardagi mavzular, falsafiy chuqurlik, ijtimoiy masalalar va xalqaro tan olinishi kabi jihatlarni ko'rib chiqadi. Uning ijodi nafaqat o'zbekistonlik o'quvchilar, balki xalqaro auditoriya uchun ham qimmatli bo'lib, o'zbek adabiyotining rivojlanishida muhim rol o'yinaydi. Abdulla Oripovning asarlari zamonaviy o'zbek she'riyatining shakllanishida ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi va kelajak avlodlar uchun ham ahamiyatini yo'qotmaydi.

**Kalit so'zlar:** She'riyat,zamонавиylık, ijodiy uslub, o'zbek madaniyati, abadiy meros,tadqiqotlar,drama, publisistik maqola.

**Аннотация:** в данной статье анализируется роль Абдуллы Орипова в узбекской литературе и его вклад в развитие его творчества. Абдулла Орипов – один из ярких представителей узбекской поэзии, соединивший традиционную узбекскую культуру с современностью и создавший новые художественные выражения. В статье рассматриваются поэтическая тематика Орипова, философская глубина, социальные проблемы, международное признание. Его творчество ценно не только для узбекских читателей, но и для международной аудитории и играет важную роль в развитии узбекской литературы. Произведения Абдуллы Орипова служат источником вдохновения для формирования современной узбекской поэзии и не потеряют своего значения для будущих поколений.

**Ключевые слова:** Поэзия, современность, творческий стиль, узбекская культура, вечное наследие, исследование, драматургия, публицистическая статья.

**Abstract:** this article analyzes the role of Abdulla Oripov in Uzbek literature and his contribution to the development of his work. Abdulla Oripov is one of the bright representatives of Uzbek poetry, who combined traditional Uzbek culture with modernity and created new artistic expressions. The article examines Oripov's poetic themes, philosophical depth, social issues, and international recognition. His work is valuable not only for Uzbek readers, but also for the international audience, and plays an important role in the development of Uzbek literature. Abdulla Oripov's works serve as a

**MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS**

*source of inspiration for the formation of modern Uzbek poetry and will not lose their importance for future generations.*

**Keywords:** Poetry, modernity, creative style, Uzbek culture, eternal heritage, research, drama, journalistic article.

1941-yilning 21-martida dunyoga kelgan yosh Abdulla o'zi haqida deydi: Qo'ng'irtov etagiga o'rashgan bo'lib, oqar suv taqchil bo'lsa-da, seryomg'ir kelgan yillarda ko'kat-u maysalarga ko'milib qoladigan kengish joy edi. Bu haqida shoirning o'zi shunday yozadi: "Ayniqsa, bahor paytlarida bu yerkarta yog'in ko'p tushar, Qo'ng'irtov etaklari ming xil o't-o'lan, chuchmoma-yu qizg'aldoqlar bilan, quyonto'pig'-u ismaloq bilan, karrag-u hazorisfand bilan, qo'zigullar bilan qoplanar, tevarak-atrof jannatiy bir manzara kasb etardi. Sel suvlari to'planib qolgan kichik-kichik ko'llarni „qoq“ deyishardi. Uning toza suvini odamlar tashib ichishar, bola-baqla chuchmomay-u ismaloq, zamburug' terib, Qo'ng'irtov etaklarida kunlarini kech qilar edi". Badiiy asarning bosh unsuri so'z, umuman, til ekan, ana shu asarning chinakam san'at darajasiga ko'tarila olishida uning tili muallifning til vositalarini qay dajada qo'llay olishi asosiy omildir. Adabiyotimizda iz qoldirgan har qanday ijodkor asarlarining tilini o'rganish, birinchidan, adibning mahoratini o'rganish, shu bilan birga tilimiz rivojiga uning asarlari tili ta'sirini, tadqiqotning esa tilshunosligimiz taraqqiyotiga qay darajada ta'sir ko'rsatayotganini aniq belgilash ehtiyojidan kelib chiqadi. Hozirgi o'zbek adabiyoti, xususan, she'riyat jamiyatimizning ma'naviyma'rifiy jihatidan yuksalishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Biz ma'naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o'zlikni anglashning o'sishidan, xalqning ma'naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzyiy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz" o'zbek she'riyati tarixidan bizga shu narsa ma'lumki, har bir shoir ijodi o'ziga xos mahorat maktabi sanaladi. Abdulla Oripov ijodi ham o'zbek she'riyati tarixida o'ziga xos o'rinn tutibgina qolmay, balki XX asr 60 yillarida adabiyotimiz tarixida yangi bir bosqichni boshlab berdi. XX asr boshida xalqimiz boshiga inqilob niqobi ostida solingan zo'ravonlik, adabiyotda sinfiylik yondashuvining kuchayishi, ura-urachilik, madhiyabozlikning avj olishi XX asr adabiyotiga tamal toshini qo'yayotgan Cho'lpon, Usmon Nosir, Abdulla Qodiriy, Fitrat singarilar qatag'on qurbaning aylanishlarining ma'naviy-ma'rifiy hayotga salbiy ta'siri 60-yillarda hamon sezilib turardi. Turg'unlik davri davom etayotgan bir pallada Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfi, Omon Matjon singari yangi avlod vakillari davr haqiqatlarini o'ziga xos yo'sinda aytal boshladilar. Abdulla Oripov ana shu mas'uliyatli davrda o'zbek adabiyotiga chaqmoqdek yarqirab paydo bo'ldi. "Abdulla Oripov o'zbek adabiyotini yangi bosqichga ko'targan nodir iste'dod sohibi edi. Uning yuksak badiiy, teran falsafiy she'rlari xalqimiz ko'nglidan chuqur joy olgan. Dramatik va publisistik asarlari, doston va tajribalari adabiyotimiz rivojiga ulkan hissa bo'lib qo'shilgan. Abdulla Oripov O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasining muallifi sifatida xalqimiz qalbimida mangu yashaydi" .Avvalo, A. Oripov ijodiga to'xtalsak, shoir she'rlarini shunchaki o'qib, tahlil qilib bo'lmaydi. Uning she'rlarini dastlab o'qiganimizda oddiy, jo'n ma'no anglasak, qayta o'qish natijasida

## MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

she'rlardagi falsafiylik va "qog'ozga o'ralgan" achchiq haqiqatlarning badiiy talqinini anglaymiz. Uning she'rlarining aksar qismida badiiy obrazning maromiga yetkizilgan o'rinalarini ko'rishimiz mumkin.

O'z. Resp. Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev Odamlar yaxshi yashashi uchun zarur sharoit yaratish - barcha rahbarlarning asosiy vazifasidir. "Xalq so'zi" gazetasi, 2017-yil 28-fevral. Otasi- Orifboy Ubaydulla o'g'li, onasi Turdixol momo.Har ikki insonda ham chinakam o'zbek xalqiga mos sarishtalik, axloq-odob, mehnatkashlik mujassam edi.Otasi dehqonchilik bilan kun kechirgani manbalarda keltiriladi.Shoir va jamoat arbobi, O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning «Tilla baliqcha», «Men nechun sevaman O'zbekistonni» singari dastlabki she'rlari talabalik yillarida yozilgan va o'zbek she'riyatiga yangi, iste'dodli, o'ziga xos ovozga ega shoirning kirib kelayotganidan darak bergen. Ko'p o'tmay, «Mitti yulduz» (1965) ilk she'rlar to'plamining nashr etilishi she'riyat muxlislarida paydo bo'lgan shu dastlabki tasavvurning to'g'ri ekanligini tasdiqlagan. Shundan keyin shoirning «Ko'zlarim yo'lingda» (1966), «Onajon» (1969), «Ruhim», «O'zbekiston» (1971), «Xotirot», «Yurtim shamoli» (1974), «Yuzma-yuz», «Hayrat» (1979), «Najot qal'asi» (1981), «Yillar armoni» (1983), «Haj daftari», «Munojot» (1992), «Saylanma» (1996), «Dunyo» (1999), «Shoir yuragi» (2003) singari she'riy kitoblari nashr etilgani ham bizga ma'lumdir. A.Oripov Yozuvchilar uyushmasiga raislik qilgan kezlar O'zbekiston eng yangi tarixi adabiy jarayoniga rahbarlik qildi. Uning she'riyati Muhammad Yusuf kabi ko'plab shoirlar ijodining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgani ahamiyatga molikdir. Buyuk yozuvchi faqatgina nazmda ijod qilib qo'ymay, balki u tarjimashunoslik bilan ham shug'ullanigan. Abdulla Oripov jahon adabiyoti durdoni asarlarini o'zbek kitobxonlariga yetkazishda ham samarali mehnat qildi. U Dante «Illohiy komediya»sining «Do'zax» qismini, A. S. Pushkin, N. A.Nekrasov, T. G. Shevchenko, L. Ukrainka, R. Hamzatov, Q. Quliyev va M. Bayjiyev asarlarini o'zbek tiliga mahorat bilan tarjima qildi. O'z navbatida, uning asarlari ham rus, ingliz, bolgar, turk, ukrain, turkman, ozarbay-jon kabi ko'plab xorijiy tillarga tarjima qilingan. Abdulla Oripov ijodining naqadar qimmatli ekanligini birgina "Sohibqiron" dramasi orqali ta'riflamoqchiman. Oddiyginaso'zlardaemas,rangli bo'yoqlarda, real hayotiy voqeahodisalar orqali sohibqiron hayotidan parcha tasvirlangan. Asarda Amir Temur janglarda emas, balki ko'proq o'ylar girdobida aks ettiriladi. Asarda Temurning murakkab tabiatini uning Amir Husayn, sulton Boyazid, amirlar, o'g'illariga munosabatini ko'rsatish mobaynida yorqin aks etgan. Amir Temur tajribali hukmdor va o'ychil faylasuf sifatida davlatni ushlab turguvchi tayanchlarni: „Mo'l xazina, yagona shoh, yengilmas lashkar“, — deya belgilaydi. Adib ijodida eng ko'p tasvir vositalari bu tabiat tasviridir. Shoir ijodiga nazar tashlasak tabiatga oshuftalik, tabiat bag'rida voyaga yetgan inson ruhiyati, ko'ngli va xayoliy mavjlanishlarga guvoh bo'lamiz. Shoirning she'rlarida tabiat lirkasi shu qadar jonli ifoda etiladiki, o'quvchi o'zini xuddi ana shu tabiat qo'ynidagidek tasavvur eta boshlaydi. Bu xislatlar balki, shoirning tog'lar, keng vodiylar bag'rida tug'lib ulg'aygani uchundir. Uning tabiat haqidagi quyidagi she'rida tabiatga murojaat qilganini ko'ramiz: Buyuk ona tabiat, Tilsimlaring juda mo'l.

Bizlarga berib sabot,

**MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS**

Ko'rsatsan to'g'ri yo'l. Ezson kutmaymiz  
Aksincha kashfiyotni, Yaratamiz o'zimiz!

Shoir ushbu she'rda tabiatga murojaat etib, uning mo'jizalarga boyligi unda turli xil ajoyibotlar yashiringanini aytib o'tagan. Tabiat –onaga qiyoslanishi, ona qanday buyuk va farzandiga to'g'ri yo'l ko'rsatishini tabiatga ko'chirgan. Shoir ijodi serqirraligi, mavzularining xilma –xilligi, she'rlardagi mavzularning bugungi kun hayotimizga ham dolzarbliji bilan ahamyatlidir. Tabiat oshnosи, daralardagidek keng qalb egasi, bahor havosidek musaffo tuyg'ular sohibi Abdulla Avloniy vatanni, muhabbatni kuylagan shoir doim qalbimizda, mangu yashaydi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. A.Oripov ijodining o'zbek adabiyoti rivojidagi o'rni. Marjoram Shuhrat qizi Teshayeva.
2. Abdulla Oripov -betakror,serqirra ijodkor sifatida.Abduveileva M.N

